

## ABDURAUFI FITRAT HAYOTI VA UNING BADIY MEROSI

**Umarqulova Barchinoy Sherali qizi**

*Buxoro davlat universiteti*

*Xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi, uning ba'zi she'rlari tahlili va qo'llangan she'riy san'atlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Adib juda sermahsul ijod qilgan. Uning ijodi rang-barangligi, haroratlilik va qalbga yaqinligi bilan insonni o'ziga rom etadi.*

**Kalit so'zlar:** *badiiy san'atlar, tashbeh, istiora, qochirim, jonlantirish*

Fitrat hozirgi o'zbek she'riyatida arab va fors so'zlariga yo'lni berkitdi. O'zbek she'r tuzilishining rivojlanish yo'llarini belgilay borib, ko'pgina yosh shoirlarni o'zining uslubi va tili bilan ergashtira oldi, atrofiga yosh shoirlarni to'plab ularga til va uslubdan yo'l ko'rsatmoqdadir.

Abdurahmon Sadiy

O'zbek adabiyoti haqida so'z ketar ekan, uning zabardast vakillaridan biri, bir nechta yangi janrlar asoschisi, jonkuyar millatparvar, o'zbek tilshunosi, adabiyotshunosi, davlat va jamoat arbobi Abdurauf Fitratni yodga olmaslikning iloji yo'q albatta. Fitrat o'z davrining yetakchi ilm-fan vakillaridan biri bo'lib, u o'zining ilmiy va adabiy faoliyati orqali Markaziy Osiyoni, ayniqsa, o'zbek tilshunosligi va adabiyotining rivojiga katta hissa qo'shgan. Fitrat asarlari tilshunoslik, tarix, adabiyot va falsafa rivojiga poydevor bo'lib xizmat qildi. Milliy uyg'onish adabiyotimizning jarchisi Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886-yil Buxoro Sharifda ziyoli oilada tug'ilgan.

Fitrat o'zbek va fors tilini onasi Bibijon otindan o'rganadi. U avval eski maktabda, keyin esa Mir Arab madrasasida o'qiydi. Adib Turkiya, Eron, Hindiston, Arabiston, Rusiya mamlakatlarida bo'lgan. „Tarbiyati atfol“ jamiyati orqali Turkiyaga jo'natilgan besh nafar talabaning biri sifatida Istanbul shahrida bilim olgan. „Fitrat Istanbulga borib o'qigan talabalar orasida eng iste'dodlisi va fozili edi“ deya aytgan edi Sadridin Ayniy. Fitrat 1919-1920- yillarda tarjimonlik qiladi va shu yillar oralig'ida adib „Turon“ , „Buxoro sharif“ , „Oyna“ kabi gazeta va jurnallarni tashkil etish ishlariga bosh bo'lgan. Shuningdek adib „Yosh buxoroliklar“ Partiyasini ham tashkil qilgan. Fitrat va Fayzulla Xo'jayev tashabbusi bilan 60 nafardan ko'proq yoshlar Germaniyaga o'qishga yuborilgan.<sup>1</sup>

Fitrat yirik olim, adabiyotshunos sifatida ham bir qancha asarlar yaratgan. Uning „Adabiyot qoidalari“ , „Eski o'zbek adabiyoti namunalari“ , „Aruz haqida“ kabi ilmiy kuzatuvlari adabiyotshunoslik tarixida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, adibning Umar Xayyom, Navoiy, Bedil, Firdavsiy, Muqumiy, Furqat haqidagi tadqiqotlari ham

<sup>1</sup> „Adabiyot“ kitobi „Sharq“ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati TOSHKENT 2012 Safo Matchonov Sharafjon Safiyev 228-bet

adabiyotimiz tarixini o'rganishda muhim manbaa bo'lib xizmat etadi. Fitrat ayni vaqtda olim, ulkan pedagog, xalq maorifi tashkilotchisi sifatida ham faol ishlagan.

Abdurauf Fitrat bir qancha asarlar muallifi bo'lib: „Munozara” , „Sayha” , „Uchqun” , „Mening tunim” , „Sharq” , „Yigit” , „Bir oz kul” , „Yurt qayg'usi” kabi asarlari juda mashhurdir.

Og'ir yigit, sening go'zal nurli yuzingda  
Bu millatning saodatin, baxtin o'qidim.  
O'ylashingda, turishingda hamda o'zingda  
Bu yurt uchun qutulishning borligin ko'rdim.  
Turma-yugur, tinma-tirish, bukulma-yuksal  
Hurkma-tirish, qo'rqma- yopish, yo'rilma-qo'zg'al!

Adibning ushbu misralari uning „O'gut” she'ridan olingan bo'lib, bu she'r yigitlarga chaqiriq, murojaat shaklida bitilgan. Aynan shuning uchun ham, she'r sarlavhasida ham „chaqiruv” , „da'vat” , „uyg'otish” ma'nolari mujassam. Ushbu misralardan adibning naqadar so'z ustasi ekanligi, jonkuyarligi, millatparvarligi ruhi sezilib turipti. Abdurauf Fitrat she'ri orqali chinakam xalq farzandlarini shiddatga, harakatga undagan.

Shoir she'rida dardiga najot topganday bo'ladi go'yo. Bu najot xalqning og'ir-vazmin, ammo ko'zlari yoniq farzandlari-yigitlaridir. Bu yigitlarning nurli ko'zlarida shoir millatning ertangi kunini, baxt va iqbolini ko'radi. Zero: har qanday xalqning kelajagi uning bg'ridan yetishib chiqajak avlodga, bu avlodning millat orzularini qanchalik chuqur anglashiga bog'liqdir<sup>2</sup>.

She'r quyidagi misralar bilan yakun topadi:

..... Qilolmasang shu ishlarni,  
Sening uchun xo'rlikdir bu  
Yiqil, yo'qol, ket!

Ya'ni har bir er-yigit bor ekan, yurti uchun, milliy o'zligi, ona diyori uchun yonib yashamog'i kerak. Er kishi hech qachon ortga chekinmaydi, u tirik ekan qaddini aslo bukmaydi, yarim yo'lda to'xtalib qolmaydi, mudom harakatda bo'ladi. „Agar shunday bo'la olmasang, sen uchun bu xo'rlikdir”,- deydi adib o'z she'rida. Hayotda bemaqsad yashaydigan, ona diyori, xalqi, tug'ilib o'sgan zamini, oilasi, yaqinlari uchun kurashmaydigan inson bo'lgandan ko'ra, o'liming afzal deya yakun yasaydi shoir o'z she'riga.

Vatanparvar adibimiz yana bir she'rida shunday yozadi:

Erta sahar tavof qilgil, bu vatandir  
Na vatan bu, sajdagoh-u jonim va tanimdir.  
Ko'kda mohim, osoyish-u izzat-sharafimdir,  
Ham Ka'bamdir, ham qiblamdir, hamda chamanimdir.

<sup>2</sup>Tafakkur.net

Vatan nima o'zi aslida? Vatan bu biz tug'ilib o'sgan zamin, ona tuproq, musaffo osmonimiz. Vatan bu bizning tomirimizda oqayotgan qon, jonimiz ichra jon, vatan bu sajdagoh, osmondagi oyimiz, osoyishtaligimiz va izzat-sharafimizdir. Vatan bu Ka'bamiz, qiblamiz, bor-u yo'g'imizdir. Fitrat shu qadar go'zal timsollar yaratdiki, she'ning jozibasi, so'zlar jilosi insonni o'yga toldiradi. Adib she'rida tashbeh, istiora, qochirim va jonlantirish san'atlaridan go'zal tazrda foydalangan.

Tashbeh(ar. o'xshatish)- biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsa yoki biror hodisaga qiyoslash.<sup>3</sup>

Istiora bu badiiy asarlarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarda, ya'ni majoziy ma'noda qo'llash san'ati.<sup>4</sup>

Jonlantirish-odamlarga xos xususiyatlarni jonsiz narsalar, tabiat hodisalari, hayvon, qush kabilarga ko'hirish orqali hosil bo'ladigan tasvir usulidir.<sup>5</sup>

Fitrat shunday so'zlar bilan xalqqa da'vo qilgan ekan:

Men sen uchun tug'ildim,  
Sen uchun yasharman,  
Sen uchun o'laman,  
Ey turning muqaddas o'chog'i:  
Degan da'vat eshitildi.<sup>6</sup>

Uning ijodiy va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg'unlik, g'aflatdan uyg'otish, ilm-ma'rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga birinchi navbatda milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi.

Sado kelar asrlarning qaridan  
Tushlarimga kirar tinch qo'ymas meni  
Yillar yuki, tarix silsilasidan  
So'zlayotir go'yo Fitratning ruhi  
Tanimda hayajon, o'ylarim notinch  
Qo'limda qalamim yozolmam bir so'z  
U kimdir aslida?  
Buyuk bir siymo  
Vatan tarixida o'chmas yorug' iz.  
Xalqni oldga tomon chorladi mudom  
Olov kabi yonib yashadi mudom  
Dushmanga boshini egmadi hech ham  
Hatto o'z yurtidan bo'lsa ham judo.  
Uning jon-u tani, o'y-u fikrida  
Xalqning kelajagi, ertasi bordur  
Bitgan qancha asar, nazmiy satrlar

<sup>3</sup> „Adabiyot“ Sharq nashriyoti 2012-yil 94-bet

<sup>4</sup> „Adabiyot“ Sharq nashriyoti 2012-yil 82-bet

<sup>5</sup> „Adabiyot“ Sharq nashriyoti 2012-yil 83-bet

<sup>6</sup> „Ulug' Turkiston“ 1917-yil 2-son

Ma'rifat ziyosi, ilm nuridir.  
Aytди o'z so'zini turib baralla  
Ona xalqim deya kechgan jonidan  
Fitrat bitgan minglab satrlar  
So'zlayotir asrlar zalvoridan  
U o'zgacha dunyo, tinma-tirish deb  
Buyuk kelajakka qo'yganda narvon  
Mustabid tuzumning bo'ldi qurboni  
Lek kurashdan qaytmay yashadi har on.  
Uning har bir so'zi abad barhayot  
Tomirimda qondir jonim ichra jon  
Xalqning yo'llarini yoritgan chiroq  
Noming bizga bugun sharaf ila shon.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTAR:**

- 1) „Adabiyot“ „Sharq“ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2012
- 2) S. Olim Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua).-T:G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.-148-bet
- 3) N. Karimov Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik majmuasi).-T:O'qituvchi,2004. -73-86-betlar